

FAOL FUQAROLIK JAMIYATIDA YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Yusupova Shahzoda

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim” yo‘nalishi
2-bosqich talabasi, O‘zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyat hayotida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning muhim masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari prezidentimizning “Yoshlarga oid davlat siyosati” ning yuritilishi, yoshlarga berilgan imkoniyatlar, faol fuqarolik jamiyatida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish usullari va turlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, ijtimoiy-siyosiy faollik, “Yoshlarga oid davlat siyosati”, ijtimoiy faollik, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi.

Hozirgi kun miqyosida oladigan bo‘lsak, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek eng yuqori maqsadlar ro‘yobini, albatta, biz yoshlarning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda fuqarolik jamiyati atamasi haqida ham to‘xtalib o‘tish joiz:

“Fuqarolik jamiyati-yuksak fazilatlarga ega bo‘lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonunlar ustuvorligi ta’minlanadi, inson huquq va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va hamda institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayot kafolatlanadi, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining mavqeyi yuksak bo‘ladi”. (<https://xs.uz> 08.07.2022-yil Alisher Xursanov O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti) Aynan respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davrdanoq biz yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, salomatligi va globallashuv davrida ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga katta e’tibor berib kelinmoqda. Bu dolzarb masala davlat siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim, ijtimoiy-siyosiy sohadagi jahon andozalariga mos islohotlar, aholi, aynan yoshlarning faolligini oshirishga qaratilgan beqiyos ishlarning zamirida ham ana shunday mushtarak maqsadlar mujassam. Yoshlarning yanada rivojlanishi, iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, shu bilan birgalikda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida mustaqillik yillarida bu borada 23ta qonun va 100dan

ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, hayotga izchil tadbiriq etib kelinmoqda. Jumladan: 1991-yil noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 1997-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet ellarda o'qishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Umid" jamg'armasini tashkil etish to'g'risida farmoni e'lon qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yildagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 206-yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi etiborga molikdir. Unga ko'ra mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi. Zero, intellektual salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng mustaqil fukrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishdandir.

Hozir turli xil g'oyalar va mafkuralar hukm surayotgan davrda yoslarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jud muhimdir. Shu o'rinda ijtimoiy-siyosiy faollik nima? Bu faolliklarga nimalar kiradi? degan bir qancha savollar yuzaga keladi. Ijtimoiy-siyosiy faollik- insonlar yoki jamiyatning siyosiy masalarda aktiv, ya'ni faoll bo'lishi va o'z fikrini erkin bayon qilishi demakdir. Biz demokratik huquqiy davlatda yashaymiz, kelajakda eng yuqori bosqichi bo'lgan fuqarlik jamiyatini qaror toptirishni maqsad qilib qo'yganmiz.

Bu jamiyatda fuqarolarning erkin va demokratik faoliyatlarining keng namoyon bo'lishini taqozo etadi. Kelajak qo'lida bo'lgan biz yoshlar o'qishda, sportda, ilmiy-texnikaviy ijodida, mehnat ko'nikmalarini hosil qilishda, mustqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishimizning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Buning uchun birinchidan, oilada sog'lom turmish muhitining bo'lishi, ikkinchidan, talim muassasalarida yuqori sifatli o'qitish, o'quvchining fikrini eshitish va erkin munozarani yo'lga qo'yish, uchinchidan, mustaqil hamda erkin fikr yuritish uchun ijtimoiy muhitni shakllantirish ham muhimdir.

"Ijtimoiy-siyosiy faolliklarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

1. Tanqid va muhokama. Ijtimoiy-siyosiy faollik o'z fikrini ifoda qilish. siyosiy qarorlarni baholash va ularga tanqid qilish orqali boshlanadi. Bu- demokratik jamiyatning asosiy qismidir.

2. Qatnashuvchi tashkilotlar. Ijtimoiy-siyosiy faollik tashkilotlar, jamiyat guruhlari, siyosiy klublar va boshqa tashkilotlar orqali olib boriladi. Ular siyosiy muammolarni muzokaraga chiqarish, insonlarni siyosiy jadvalga chiqarish va o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun ishlaydilar.

3. Protestsiyalar va yig'ilishlar. siyosiy faolliklarning bir qismi, insonlar va guruhlar o'zlarining talablari uchun protestsiyalarni tashkil etish orqali chiadi. Bu siyosiy tizimga ta'sir ko'rsatishning bir usuli bo'lib, insonlar o'zlarining fikrlarini e'tirof etish uchun ko'rsatilgan tushuncha.

4. Eng ko'p qo'llanadigan axborot vositalar. Media va ijtimoiy tarmoq, siyosiy masalalarni keng tarqatish hamda insonlarga siyosiy yangiliklarni yetkazishda muhim bo'lib xizmat qiladi. Bu siyosiy masalalarni, muzokaralarni yoshlarga o'rgatish va mamlakat siyosiy hayotiga qatnashishiga imkon berish juda muhimdir.

Ijtimoiy-siyosiy faollik—demokratik jamiyatda insonlarning o'zlarining huquqi va siyosiy huquqlarini boshqarish, o'zgarishlarga yo'l qo'yish va jamiyatning o'zgarishlarini talab qila olishini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar odatda yangiliklar, siyosiy rivojlanish va o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun bir nechta usul mavjud:

-Siyosiy ta'lim. Yoshlarning siyosiy jarayonlarga oid bilim va tushunchalarni olishadi. Bular ularning siyosiy bilimlarini oshirish, demokratik tizimning tushunchalarini o'rganish va o'zaro muzokaralar olib borish orqali amal qilinadi;

-Bu jarayonda qatnashuvchi tashkilotlar. Yoshlar siyosiy tashkilotlarga a'zo bo'lishi, klublar, jamoat tadbirlari va tanqidda qatnashish orqali siyosiy tajribalar olishadi;

-Yozuvlar va fikrlar. Yoshlar o'zlarining fikrlarini yozish, blog olish, ijtimoiy tarmoqda tushunchalarini taqdim qilish orqali siyosiy muammolarni muzokara qilib, unga yechimlarni berishi mumkin;

-Tanqid va muzokaralar. Yoshlar yangi siyosiy qarorlarini tanqid qila olishi va o'zlarining fikrlarini bayon qilish orqali ijtimoiy muzokaralarda ishtrok etishlari mumkin. Siyosiy aktivizm yoshlarning o'zlarining siyosiy muammolarini o'rganish, fikrlarini bayon qilish va o'zaro tushunchalarini o'zlashtirish uchun muhim bir vosita bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarni ifoda etar ekanmiz, nima sababdan aynan yoshlar? Nima uchun barcha imkoniyatlar yoshlar uchun? degan savol tug'uladi. Buning birinchi sababi aholimizning qariyb 60%idan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Shu bilan birgalikda yillar o'tib aynan mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishi, uni qay darajada boshqarish va isloh qilish, davlatimizni turli xil yot g'oyalardan, mafkuralardan himoya qilinishi aynan biz yoshlarning hozirgi kundagi ijtimoiy-siyosiy faolligimizga bog'liq. Lekin fikrimizcha, Hozirda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, jamiyatda bo'ladigan tub islohotlarga befarqdek, go'yoki bir qadar orqada qolgandek. Buning asl sababi sifatida esa hozirgi "zamonaviy yoshlarning vizual hayotdan ko'ra kunning yarmidan ko'prog'ini virtual hayotda o'kazayotganligi, globallashuv davrida yoshlar orasida "g'arbcha madaniyat"ning shakllanib

borayotganligidir. Lekin mamlakatimiz rahbari hamda mutasaddi tashkilot rahbar-xodimlari bunday omillarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni oshirishga doir ko‘plab chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.” Jumladan:

-2017-yil 19-sentabirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Asambleyasida yoshlar huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi mexanizmni tashkil etishda BMTning “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusi oldinga surildi. Ushbu g‘oya jahon hamjamiyati tomonidan dolzarb masala sifatida qabul qilinib, qo‘llab –quvvatlandi;

-joriy yilning 22-fevral kuni Prezident Shvakat Mirziyoyev tomonidan BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida Yoshlar huquqlari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachi institute tashkil etish taklifi bildirildi. U ham ma‘qullandi;

Yana bir muhim tashabbus, “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyada O‘zbekiston davlati tomonidan Yoshlar masalasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari Yoshlar kengashini tuzish tashabbusi ilgari surildi

Aynan ushbu chora-tadbirlar orasida muhim ahamiyati kasb etganlaridan biri bu prezidentimiz tomonidan yuritilib kelayotgan–“Yoshlarga oid davlat siyosati”dir. Ushbu siyosat yuzasidan ham yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilishi tizimining isloh qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan:

-O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo‘lib o‘tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgani ma‘lumot uchun qabul qilinishi;

-O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun — 30-iyun sanasi mamlakatimizda “**Yoshlar kuni**”, deb e‘lon qilinishi;

-Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga “**Temurbeklar maktabi**” nomi berilishi;

Yoshlarning ilmiy va ijodiy faoliyati natijalarini, ilm-fan va adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini hamda yoshlar siyosatiga oid muhim yangiliklarni keng yoritish maqsadida:

-O‘zbekiston yoshlar ittifoqining “Turkiston” va “Molodyoj Uzbekistana” gazetalari, “Yosh kuch” jurnali hamda boshqa yoshlar nashrlarini chop etishga ixtisoslashgan “**Yoshlar nashriyoti uyi**” tashkil qilinganligi;

Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Qoraqalpog‘iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ikki hafta muddatda:

“Adabiyotga e’tibor — ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” shiori ostida “Men sevib o‘qigan kitob” va “Eng yaxshi kitobxon” respublika tanlovlarini, “Kitob bayrami” va “Bolalar kitoblari” an’anaviy respublika festivallarini;

“Biz Vatanga tayanchimiz”, “Bizning eng katta tayanchimiz va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yoshlar” shiorlari ostidagi aksiyalarni;

“Adabiyot va san’at — shaxs ma’naviyatini boyitish va yuksaltirish omili” mavzusida yozuvchilar, shoirlar, san’atkorlar, adabiyotshunos olimlar ishtirokidagi uchrashuvlarni;

respublikaning chekka hududlarida xalq rassomlari, xalq ustalari bilan bolalar, yoshlar va ularning ota-onalari uchun “Bunyodkor xalqim bilan muloqot – ijodim ilhomi” mavzusida master-klasslar va ijodiy uchrashuvlarni;

“Eng buyuk jasorat- manaviy jasorat” mavzusida davrasuhbati kabilarning amalga oshirilishi ahamiyatlidir.([https:// lex.uz](https://lex.uz) “Yoshlarga oid davlat siyosati” 2016-yil)

“Bundan tashqari mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligik darajasini oshirish sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

-davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar;

-oila,mahalla, ta’lim muassasi, yoshlar tashkilotining faoliyatida ijtimoiy sherikchilik mexanizmining faol ishlashi;

-yoshlar tashkiloti tomonidan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar;

-yoshlar iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar”. Albatta, bu omillar bilan birgalikda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga to’sqinlik qiluvchi omillar ham yo‘q emas.” Bular quyidagilar:

-yoshlar o‘rtasida huquqiy darajasining pastligi;

-ota-onlar va jamoatchilik tomonidan yoshlarga nisbatan e’tibor va mas’uliyatning yo‘qligi;

-yoshlar o‘rtasida turli xildagi illatlarning keng tarqalishi (narkomaniya. Ichkili, fohishalik va h.k)

-yoshlar o‘rtasida erta nikoh qurish holati;

-destruktiv g‘oyalar va g‘arb madaniyatiga intilish”.

(<https://sciencebox.uz> “Synergy:Journl of ethics and gourenment” 02.08.2022.- B.21-22 O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish strategiyasi. Boltayev Sunnat Baxtiyor o‘g‘li Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti 2-kurs talabasi)

Bu kabi to'sqinlik qiluvchi omillarga qarshi yuqorida takidlab o'tilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bir qadar muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan ishlarning amalga oshirilishi, prezidentimiz tomonidan biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar, albatta, barchamizga mas'uliyat yuklaydi. Endilikda jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga befarq bo'lishimiz, bugungi globallashuv davrida sustkashlik bilan harakat qilishimiz, bir joyda qimirlamay qotib qolishimiz yaramaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yeti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // Xalq so'zi, 2018 yil, 1-sentabr. N/180-181.
2. (<https://sciencebox.uz> "Synergy: Journl of ethics and gourenment" 02.08.2022.- B.21-22 O'zbekistonda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish strategiyasi. Boltayev Sunnat Baxtiyor o'g'li Buxoro davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti 2-kurs talabasi)
3. (<https://marifat.uz> 26.08.2021-yil E'tibor Sultonova "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti professori, siyosiy fanlar doktori)
4. ". (<https://xs.uz> 08.07.2022-yil Alisher Xursanov O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti)
5. (. [https:// lex.uz](https://lex.uz) "Yoshlarga oid davlat siyosati" 2016-yil)